



SOCIO-HISTORICAL FOUNDATIONS OF PREVENTING GENDER DISCRIMINATION IN PUBLIC ADMINISTRATION

Doniyor Bakhronov

*Acting Associate Professor of the Department of
Social Sciences of the University of Science and Technology
Candidate of Historical Sciences
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: gender discrimination, public administration, social equality, historical process, women's rights, gender policy.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article analyzes the issue of preventing gender discrimination in public administration from a socio-historical perspective. It highlights the formation of the principles of human rights, equality, and justice, as well as their influence on the system of public administration. The study analyzes the change in social roles between women and men in historical processes, the evolution of gender equality policy, and the related legal and regulatory framework. Also considered are the directions for improving gender policy in Uzbekistan during the period of independence, its harmonization with international experience, and factors for increasing women's participation in the management system. The article substantiates the role of social consciousness, culture, and upbringing in ensuring gender equality, as well as the need to develop effective mechanisms against discrimination.

JAMIYAT BOSHQARUVIDA GENDER DISKRIMINATSIYASINING OLDINI OLISHNING IJTIMOIIY-TARIXIY ASOSLARI

Doniyor Baxronov

*Dotsenti v.b., tarix fanlari nomzodi
Fan va texnologiya universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrası
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: gender diskriminatsiyasi, jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy tenglik, tarixiy jarayon, ayollar huquqlari, gender siyosat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat boshqaruvida gender diskriminatsiyasining oldini olish masalasi ijtimoiy-tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Unda inson huquqlari, tenglik va adolat tamoyillarining shakllanishi hamda ularning jamiyat boshqaruvi tizimiga taʼsiri yoritilgan. Tadqiqotda tarixiy jarayonlarda ayollar va erkaklar oʻrtasidagi ijtimoiy rollarning oʻzgarishi, gender tenglik siyosatining evolyutsiyasi va u bilan bogʻliq huquqiy-meʼyoriy asoslar tahlil etiladi. Shuningdek, mustaqillik davrida Oʻzbekistonda gender siyosatini takomillashtirish yoʻnalishlari, xalqaro tajribalar bilan uygʻunlashuvi va boshqaruv tizimida ayollar faolligini oshirish omillari koʻrib chiqiladi. Maqola gender tenglikni taʼminlashda ijtimoiy ong, madaniyat va tarbiyaning oʻrni, shuningdek, diskriminatsiyaga qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ГЕНДЕРНОЙ ДИСКРИМИНАЦИИ В УПРАВЛЕНИИ ОБЩЕСТВОМ

Дониёр Бахронов

и.о. доцента кафедры “Социальные науки”

Университета науки и технологий

кандидат исторических наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гендерная дискриминация, управление обществом, социальное равенство, исторический процесс, права женщин, гендерная политика.

Аннотация: В данной статье с социально-исторической точки зрения анализируется вопрос предотвращения гендерной дискриминации в управлении обществом. В ней освещается формирование принципов прав человека, равенства и справедливости, а также их влияние на систему управления обществом. В исследовании анализируется изменение социальных ролей между женщинами и мужчинами в исторических процессах, эволюция политики гендерного равенства и связанные с ней нормативно-правовые основы. Также будут рассмотрены направления совершенствования гендерной политики в Узбекистане в период независимости, ее гармонизация с международным опытом и факторы

повышения активности женщин в системе управления. В статье обосновывается роль общественного сознания, культуры и воспитания в обеспечении гендерного равенства, а также необходимость разработки эффективных механизмов борьбы с дискриминацией.

Kirish. Jamiyat boshqaruvi va gender siyosati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ijtimoiy tizimning barqaror rivojlanishi va adolat tamoyillarining amalda qaror topishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy va amaliy omillar hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olgan bo'lib, u jamiyatdagi ijtimoiy rollar, mehnat taqsimoti, siyosiy ishtirok va iqtisodiy imkoniyatlar tizimi orqali shakllanadi. Shu ma'noda gender siyosati boshqaruv tizimining ijtimoiy adolat, inson qadr-qimmati va teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan holda yuritilishini kafolatlaydi. Gender siyosati jamiyatda mavjud bo'lgan patriarxal, stereotipik qarashlarni yengib o'tish, shaxsning ijtimoiy salohiyatini jinsidan qat'i nazar namoyon etishiga imkon beruvchi ijtimoiy mexanizmdir. "Boshqaruvda ayollarning ishtiroki faqat siyosiy kvota yoki statistik ko'rsatkich sifatida emas, balki ijtimoiy tafakkurning yangilanishi, demokratiya madaniyatining chuqurlashuvi sifatida qaralishi lozim" [1]. Bu o'z navbatida boshqaruvda inklyuziv yondashuvni kuchaytiradi, qaror qabul qilish jarayonlarida turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlari inobatga olinadi.

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili. shuni ko'rsatadiki, jamiyat boshqaruvida gender diskriminatsiyasining oldini olish masalasi ijtimoiy-tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotlar gender tenglik tushunchasining evolyutsiyasi, inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillarining shakllanish bosqichlarini yoritadi. Xalqaro miqyosda BMT, YUNESKO va CEDAW kabi tashkilotlarning hujjatlari gender siyosatini institutsional darajada mustahkamlashga xizmat qilgan. O'zbekiston misolida esa sovet davridan boshlab ayollar ijtimoiy faolligining ortishi, mustaqillik yillarida esa gender tenglikni ta'minlash bo'yicha huquqiy-me'yoriy bazaning yaratilishi adabiyotlarda chuqur o'rganilgan. Ilmiy manbalar shuningdek, boshqaruv tizimida ayollar ishtirokini kengaytirish, stereotiplarni yengish va ijtimoiy ongni o'zgartirishning nazariy va amaliy yo'nalishlarini tahlil qiladi.

Tahlil va natijalar. Jamiyat boshqaruvida gender siyosati samarali yo'lga qo'yilsa, boshqaruv tizimida ijtimoiy ishonch va legitimlik darajasi ortadi. Zero, boshqaruvda tenglik tamoyili fuqarolarning o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etishiga zamin yaratadi. Aksincha, gender diskriminatsiyasi mavjud jamiyatlarda boshqaruvda muvozanat yo'qoladi, natijada qarorlar bir tomonlama qabul qilinib, ijtimoiy adolat buziladi. Yangi O'zbekiston sharoitida gender siyosati "inson qadri uchun"[2] tamoyilining tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Bunda jamiyat boshqaruvida ayollarning roli nafaqat siyosiy lavozimlarda, balki iqtisodiy, ma'naviy, madaniy sohalarda ham kengaymoqda. Bu jarayon ijtimoiy ongda "ayol – faqat oilaviy rol egasi" degan an'anaviy qarashlarni o'zgartirib, shaxsning ijtimoiy faolligini yangi bosqichga olib chiqdi. Demak, jamiyat boshqaruvi va gender siyosati bir-birini to'ldiruvchi ijtimoiy-falsafiy tizimlardir. Ularning uyg'unligi orqali boshqaruvda adolat, tenglik, erkinlik va inson qadr-qimmatiga hurmat tamoyillari mustahkamlanadi. Shu jihatdan, gender siyosatini boshqaruv falsafasining ajralmas qismi sifatida anglash – demokratik jamiyat qurishning muhim falsafiy asosidir.

Gender diskriminatsiyasi – bu shaxsning ijtimoiy hayotdagi imkoniyatlari, huquqlari va mavqeining faqat jinsiy mansubligi asosida cheklanishi yoki kamsitilishidir. Falsafiy nuqtai nazardan, bu hodisa inson qadr-qimmatiga va adolat tamoyillariga zid bo'lgan ijtimoiy ong mahsuli sifatida talqin qilinadi. U jamiyatdagi patriarxal tafakkur, stereotipik qarashlar va ijtimoiy rol taqsimotining notengligidan kelib chiqadi. Sotsiologik jihatdan esa "gender diskriminatsiyasi ijtimoiy institutlar – ta'lim, mehnat bozori, siyosat va madaniyat tizimlarida namoyon bo'ladi. Bu jarayon ijtimoiy tengsizlikni mustahkamlaydi, ayollar va erkaklar o'rtasida ijtimoiy resurslar taqsimotida nomutanosiblik keltirib chiqaradi"[3]. Shu bois, gender diskriminatsiyasini falsafiy-sotsiologik tahlil qilish ijtimoiy adolat, erkinlik va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirishning muhim sharti hisoblanadi.

BMT, YUNESKO va Yevropa Kengashi kabi xalqaro tashkilotlar gender tenglikni inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida qaraydi. BMTning 1948-yilgi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da barcha insonlar jinsidan qat'i nazar teng huquqli ekani e'tirof etilgan. Keyinchalik "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risida"gi (CEDAW, 1979) konvensiya gender tenglikni global darajada huquqiy asosda mustahkamladi.

YUNESKO esa gender tenglikni ta'lim, fan, madaniyat va axborot siyosatining markaziy tamoyili sifatida ilgari suradi. U ayollar ta'limdagi ishtirokini kengaytirish, ilm-fanda yetakchi rolini kuchaytirish orqali barqaror rivojlanishga erishishni maqsad qiladi.

Yevropa Kengashi esa gender tenglikni demokratiya va inson huquqlarining asosi deb biladi. U "Gender mainstreaming" – barcha siyosiy va ijtimoiy dasturlarda gender omilini inobatga olish tamoyilini ilgari suradi. Shunday qilib, ushbu tashkilotlar gender tenglikni faqat ijtimoiy masala emas, balki global taraqqiyot, tinchlik va adolatning asosi sifatida ko'radi.

Gender tenglik masalasi zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida dolzarb mavzulardan biridir. So'nggi yillarda mamlakatda ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Prezident tashabbusi bilan "Gender tenglikni ta'minlash strategiyasi", "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va

oilani mustahkamlash bo'yicha milliy dastur" kabi hujjatlar qabul qilinib, ularning amaliy mexanizmlari yaratildi.

Biroq, amaliyotda gender tenglikni ta'minlash hali ham to'liq yechim topmagan masaladir. An'anaviy ijtimoiy qarashlar, patriarxal stereotiplar, ayollarning mehnat bozori va siyosiy jarayonlarda past ishtiroki dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Shu sababli gender siyosatini jamiyat boshqaruvi, ta'lim, mehnat va madaniyat tizimlariga chuqur singdirish zarur. Bu jarayon nafaqat ayollarning huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatning intellektual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, gender tenglik masalasi Yangi O'zbekiston taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy va ijtimoiy poydevorini tashkil etadi.

"Diskriminatsiya" va "gender tenglik" tushunchalarining ontologik va aksiologik tahlili ularning jamiyatdagi mavjudlik mohiyatini va qadriyat sifatidagi o'rnini anglash imkonini beradi. Ontologik jihatdan "diskriminatsiya – inson mavjudligining ijtimoiy munosabatlar tizimidagi nomutanosiblik holatini ifodalaydi"[4]. Bu holatda shaxs jinsiy, irqiy yoki ijtimoiy mansubligi sababli teng imkoniyatlardan mahrum bo'ladi, ya'ni insonning ontologik maqomi – "erkin va teng mavjudot" sifatidagi tabiiy mohiyati buziladi. Gender tenglik esa, aksincha, insonning mavjudlik mohiyatiga mos bo'lgan adolat, erkinlik va o'zini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Aksiologik tahlilda diskriminatsiya salbiy ijtimoiy qadriyat – tengsizlik, kamsitish, adolatsizlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Gender tenglik esa insonparvarlik, adolat va erkinlik tamoyillariga asoslangan ijobiy aksiologik qiymatdir. U shaxsning qadr-qimmatini e'tirof etish, ijtimoiy tizimda barqarorlik va uyg'unlikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shu bois gender tenglik qadriyatlari demokratik jamiyatning ma'naviy-axloqiy poydevorini tashkil etadi.

Patriarxal tafakkur va sotsiomadaniy stereotiplarning falsafiy ildizlari insoniyat tarixining eng qadimiy bosqichlariga borib taqaladi. Patriarxal tafakkur — bu erkak ijtimoiy tizimning markazi bo'lib, unda erkak shaxs ustunlikka, ayol esa ikkilamchi ijtimoiy rolga ega deb qaraladi. Bunday tafakkur shakli tarixan iqtisodiy, diniy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimi orqali shakllangan. Ayniqsa, qadimiy agrar jamiyatlarda mehnat taqsimoti, mulk egaligi va naslni davom ettirish kabi amaliy omillar erkakning ustun mavqeini mustahkamladi. Shu tariqa patriarxat faqat biologik emas, balki falsafiy-ijtimoiy tuzilma sifatida qaror topdi.

Bu tizimning ildizlari Platon, Aristotel, Forobiy va boshqa qadimgi mutafakkirlarning g'oyalarida ham ko'rinadi. Aristotel ayolni "to'liq aqlga ega bo'lmagan mavjudot"[5] sifatida tasvirlaydi, bu esa ijtimoiy tafakkurda ayollarning tabiatan erkaklardan pastroq darajada ekanligi haqidagi stereotipni mustahkamlagan. Shu kabi qarashlar diniy tafakkurda ham o'z ifodasini topdi – ko'plab diniy matnlarda erkak "rahbar" va "himoyachi", ayol esa "bo'ysunuvchi" va "itoatkor" sifatida talqin qilindi.

Sotsiomadaniy stereotiplar esa patriarxal tafakkurning madaniy shakllanish jarayonidagi mahsulidir. Ular urf-odat, tilda, xalq og‘zaki ijodida, adabiyot va san’atda chuqur ildiz otgan. Masalan, ayolning “uy bekasi”, “ona”, “sokin va itoatkor” obrazlari madaniy model sifatida jamiyat ongida mustahkam o‘rnashgan. Bu stereotiplar ijtimoiy rolni jinsiy asosda belgilab, shaxsning ijtimoiy imkoniyatlarini cheklaydi.

Falsafiy tahlilda patriarxal tafakkur ijtimoiy ierarxiya va hokimiyat munosabatlarining mahsuli sifatida qoraladi. U jamiyatda erkinlik va tenglik tamoyillarining to‘liq ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qiladi. Sinergetik yondashuvga ko‘ra, patriarxal tizim – bu o‘zini o‘zi takrorlovchi ijtimoiy tizim bo‘lib, uni o‘zgartirish uchun ong darajasida transformatsiya zarur. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy falsafiy tafakkur patriarxal stereotiplarni dekonstruksiya qilish, ya’ni ularning ijtimoiy asoslarini tahlil qilib, yangicha gender tafakkur modelini shakllantirishni maqsad qiladi. Demak, patriarxal tafakkur va sotsiomadaniy stereotiplar insoniyat tarixida uzoq davom etgan ijtimoiy-falsafiy jarayon mahsulidir. Ularni yengib o‘tish esa jamiyatda adolat, erkinlik va inson qadr-qimmatiga asoslangan yangi ijtimoiy ongni shakllantirishni talab etadi.

Ana shunday harakatlar F.Nitshe, S. de Bovuar, J.Habermas, M.Fuko va N.Berdyaev kabi mutafakkirlarning inson erkinligi va ijtimoiy adolat haqidagi qarashlari zamonaviy gender tenglik g‘oyalarining falsafiy asosini tashkil etadi. Ularning fikrlarida insonning jinsiy, ijtimoiy yoki madaniy mansubligidan qat’i nazar, shaxsiy erkinlik va o‘zini anglash tamoyili markaziy o‘rinda turadi.

Friedrix Nitshe inson erkinligini “qudrat irodasi” orqali talqin etib, insonni jamiyat tomonidan yuklangan me’yorlar va stereotiplardan ozod bo‘lishga da’vat etadi. Uning “Zardusht tavallosi haqida” asarida aytilganidek: “Inson o‘z chegaralarini yenggan zahoti haqiqiy mavjudotga aylanadi”[6] Bu fikr gender tafakkurda ham dolzarb bo‘lib, u ayol va erkakni ijtimoiy rollardan erkinlashtirish, ularning ijodiy salohiyatini namoyon etish zaruratini bildiradi.

Simona de Bovuar esa “Ikkinchi jins” asarida gender tenglik masalasini falsafiy va ekzistensial nuqtai nazardan ochib beradi. U shunday yozadi: “Ayol tug‘ilmaydi, ayolga aylanadi”[7]. Bu ibora ijtimoiy jinsning tabiiy emas, balki ijtimoiy konstruksiya ekanligini ko‘rsatadi. De Bovuar uchun erkinlik – bu ayolning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqidir. Shunday qilib, u gender tenglikni insonning o‘zini mavjudot sifatida ro‘yobga chiqarishining zarur sharti sifatida talqin etadi.

Yurgen Habermas esa kommunikativ harakat nazariyasi orqali ijtimoiy adolatni muloqot asosida quriluvchi jarayon deb biladi. Unga ko‘ra, “adolat – bu muloqotda barcha ishtirokchilar teng ovozga ega bo‘lgan holatdir”[8]. Ushbu yondashuv gender tenglikni ijtimoiy muloqotda ayollar va erkaklarning teng subyekt sifatida qatnashish huquqi bilan bog‘laydi.

Mishel Fuko esa hokimiyat va bilim o'rtasidagi munosabatni tahlil qilib, gender tafakkurdagi nazorat va normalashgan me'yorlarni tanqid qiladi. U "hokimiyat tanani nazorat qiladi, til esa ongni shakllantiradi" [9] deya yozadi. Bu fikr gender tizimining ijtimoiy va madaniy normalar orqali shakllanishini fosh etadi hamda ayollarning erkinlik uchun kurashini diskursiv ozodlik sifatida talqin etadi.

Nikolay Berdyayev esa erkinlikni insonning ma'naviy mohiyati sifatida talqin etadi. U shunday yozadi: "Erkinlik – bu insonning ilohiy qadr-qimmatining ifodasidir". Berdyayevning bu yondashuvi gender tenglikni insonning ruhiy va axloqiy barkamolligini anglash bilan bog'laydi. Shunday qilib, ushbu mutafakkirlarning qarashlari inson erkinligi, adolat va tenglikning chuqur falsafiy asosini yaratgan bo'lib, ular zamonaviy gender falsafasining ma'naviy-falsafiy ildizlarini tashkil etadi.

Yangi O'zbekiston boshqaruvida gender tenglik ijtimoiy tizimning muvozanatini ta'minlovchi, adolat va barqarorlikni mustahkamlovchi falsafiy tamoyil sifatida qaralmoqda. Bu jarayon inson qadr-qimmati, erkinlik va teng imkoniyatlarga asoslangan boshqaruv falsafasining shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Gender tenglik faqat ayollar huquqini himoya qilish masalasi emas, balki jamiyatning intellektual va ma'naviy resurslarini to'liq safarbar etishning sharti hisoblanadi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ayol va erkakning jamiyatdagi o'rni teng bo'lgan taqdirdagina davlat kuchli, jamiyat barqaror bo'ladi"[10]. Ushbu fikr Yangi O'zbekiston konsepsiyasida gender tenglikni ijtimoiy tizimning barqaror muvozanat omili sifatida anglash zaruratini ifodalaydi. Boshqaruvda ayollar ishtirokining kengayishi qaror qabul qilish jarayonlarini demokratlashtiradi, ijtimoiy manfaatlarning xilma-xilligini inobatga olish imkonini beradi. Yangi O'zbekiston boshqaruvida gender tenglik ijtimoiy tizimning barqarorligi, hamjihatlik va ma'naviy uyg'unlikni mustahkamlovchi poydevordir. U nafaqat siyosiy islohotlarning, balki jamiyat ongining yangilanishining ham muhim ko'rsatkichi bo'lib, "inson qadri uchun" tamoyilining amaliy ifodasiga aylanmoqda.

Erkak va ayol subyektivligining boshqaruv tizimida uyg'un ifodalanishi sinergetik yondashuv nuqtai nazaridan jamiyatning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy muvozanatini ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida talqin etiladi. Sinergetika nazariyasi (I. Prigojin, G. Xaken)ga ko'ra, har qanday tizimning barqarorligi turli elementlarning o'zaro hamkorligi va muvozanatli energiya almashinuvi orqali vujudga keladi. Shu jihatdan, boshqaruv tizimida erkak va ayol subyektivligining uyg'unligi – bu ijtimoiy tizimning "energetik muvozanati"dir.

I. Prigojin ta'kidlaganidek: "Tartib – bu xaos bilan o'zaro ta'sirda vujudga keladigan dinamik muvozanatdir". Ushbu g'oya boshqaruv tizimida erkaklarning ratsional, analitik tafakkuri bilan ayollarning intuitiv, empatik qarashlarini uyg'unlashtirish zarurligini falsafiy asoslaydi.

Ya'ni, boshqaruvda jinsiy farqlar to'siq emas, balki tizimni boyituvchi, uni yanada moslashuvchan va insonparvar qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Sinergetik yondashuvda ayol va erkak subyektivligi qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi energiyalar sifatida qaraladi. Falsafiy ma'noda bu "komplementarlik" tamoyili bilan izohlanadi. N.Berdyayevning fikricha: "Erkak va ayolning birligi – bu ikki ruhiy dunyoning yaratuvchan uyg'unligidir". Shu bois boshqaruv tizimida gender uyg'unligi ijodkorlik, empatiya va adolatga asoslangan qarorlar qabul qilinishiga olib keladi.

Zamonaviy O'zbekiston boshqaruvida bu sinergetik yondashuv amalda namoyon bo'lmoqda. Ayollar parlament, mahalliy kengashlar va boshqaruv organlarida faol ishtirok etayotgani ijtimoiy tizimni barqaror va muvozanatli holatni ta'minlaydi. Erkak va ayol subyektivligining sinergetik uyg'unligi boshqaruv tizimini murakkab, ammo barqaror ijtimoiy mexanizmga aylantiradi. U insonparvarlik, adolat va ijodiy fikrlashga asoslangan boshqaruv madaniyatini shakllantiradi, bu esa Yangi O'zbekiston taraqqiyot falsafasining amaliy ifodasidir.

O'zbekiston Respublikasida ayollarni boshqaruvga keng jalb etish siyosati so'nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimining demokratik yangilanishida muhim bosqichga aylandi. Ushbu siyosat mamlakatning gender tenglikni ta'minlash, inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va ijtimoiy muvozanatni mustahkamlash yo'lidagi strategik yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollarning faolligini oshirish – taraqqiyotimizning eng muhim omillaridan biridir".

So'nggi yillarda parlament va mahalliy kengashlarda ayollar ulushi sezilarli darajada oshdi. 2019-yilgi Oliy Majlis saylovlari natijalariga ko'ra, Qonunchilik palatasidagi ayollar soni 32 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich xalqaro standartlarga mos ravishda, O'zbekistonni Markaziy Osiyoda gender tengligi bo'yicha yetakchi davlatlardan biriga aylantirdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Gender tenglik indeksi"da ham O'zbekistonning reytingi barqaror o'sib bormoqda.

Mahalliy kengashlarda ham ayollarning faolligi oshgan. 2024-yil holatiga ko'ra, mahalliy kengash deputatlarining qariyb 27 foizi ayollardir, bu 2014-yildagi ko'rsatkichdan ikki baravar yuqori. Ayol deputatlar ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya, oilaviy siyosat kabi ijtimoiy yo'nalishlarda tashabbuskorlik ko'rsatib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shmoqdalar. Davlat xizmatida ham ayollarning ulushi ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, davlat xizmatchilarining 29 foizdan ortig'ini ayollar tashkil etadi, ularning aksariyati rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, Prezident huzuridagi Xotin-qizlar va gender tenglik komissiyasi faoliyati natijasida ayollar uchun malaka oshirish, yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish dasturlari kengaytirildi.

Bu jarayon O'zbekistonning gender siyosatini xalqaro huquqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirishini ham ko'rsatadi. Xususan, mamlakat CEDAW (Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Konventsiya) talablarini milliy siyosatga integratsiya qilmoqda. Bugun jamiyatimizning boshqaruvida S.Mirziyoyeva, T.Narbayeva, Z.Mahkamova, M.Axmedova, N.Egamberdiyeva, O.Musurmonova, M.Qaxxarovalar jamiyatimizni siyosiy hayotida faol ishtirok etib, gender tengligini ta'minlash, oilaviy zo'ravonlikni oldini olish, oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirish, oilaviy ajrimlarni oldini olish, jamiyatnin ma'naviy sog'lomlashtirish kabi mas'uliyatli vazifalarni bajarib, yurtimiz taraqqiyoti uchun xizmat qilib kelmoqda.

Gender diskriminatsiyasi – bu jamiyatda insonlarning jinsiy belgisi asosida turlicha munosabatda bo'lish, teng imkoniyatlardan foydalanish huquqini cheklovchi ijtimoiy hodisadir. Ushbu muammoni hal etish faqat huquqiy yoki iqtisodiy mexanizmlar orqali emas, balki falsafiy asoslangan konseptual model yordamida amalga oshirilgandagina ijtimoiy tizimda barqaror natijaga erishish mumkin. Chunki diskriminatsiyaning ildizlari inson haqidagi tasavvurlar, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ongda chuqur joylashgan.

Birinchi falsafiy asos – inson ontologiyasidagi tenglik tamoyili. Inson mohiyatan erkin va teng huquqli mavjudot sifatida yaratilgan. Bu fikr Immanuel Kantning “Inson hech qachon vosita emas, u maqsaddir” degan aksiomasida o'z ifodasini topgan. Shu nuqtai nazardan, jinsiy farqlar insonning ijtimoiy ahamiyatini belgilovchi omil emas. Gender tafovutlar biologik emas, balki ijtimoiy konstruksiyadir. Demak, konseptual modelning ontologik asosi – insonning mavjudlikda teng subyekt sifatida tan olinishi va uning ijtimoiy mohiyatini jinsiy belgilar bilan cheklamaslikdir.

Ikkinchi komponent – aksiologik asos, ya'ni gender tenglikni ijtimoiy qadriyat sifatida shakllantirish. Gender tenglikni qadriyat sifatida jamiyat ongiga singdirish, erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarni hamkorlik va muloqotga asoslangan tizim sifatida rivojlantirish lozim. Bu bosqichda ta'lim, ommaviy axborot vositalari va madaniyat orqali gender stereotiplarni bartaraf etish muhim falsafiy vazifa hisoblanadi.

Uchinchi element – sinergetik yondashuv, ya'ni ijtimoiy tizimda erkak va ayol subyektivligining uyg'un hamkorligi. I. Prigogin va G. Xaken singari sinergetika vakillari ta'kidlaganidek, tizim barqarorlikka qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi muvozanat orqali erishadi. Shu bois jamiyatda gender uyg'unligi – bu ziddiyat emas, balki ijodiy sintezdir. Gender muvozanati jamiyatning barqaror rivojlanishining ijtimoiy energiyasini oshiradi.

To'rtinchi bosqich – pragmatik mexanizmlar. Gender diskriminatsiyasini kamaytirish uchun falsafiy asoslar amaliy mexanizmlar bilan uyg'unlashishi kerak. Bu jarayonda BMT, YUNESKO va Yevropa Kengashi tomonidan ilgari surilgan gender tenglik tamoyillari, xususan, “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Konventsiya (CEDAW)” asosiy

yoʻnalish sifatida xizmat qiladi. Oʻzbekistonda ham 2022–2030-yillarga moʻljallangan “Gender tenglik strategiyasi” bu tamoyillarga mos holda ishlab chiqilgan.

Fikrimizcha yuqoridagi toʻrt bosqich konseptual modeli quyidagi uch yoʻnalishni qamrab oladi:

1. Kognitiv yondashuv – gender stereotiplarni tahlil qilish va ularni ijtimoiy ongdan chiqarish;
2. Aksiologik yondashuv – tenglikni ijtimoiy qadriyat sifatida shakllantirish;
3. Pragmatik yondashuv – huquqiy, siyosiy va madaniy mexanizmlar orqali amaliy tenglikni taʼminlash. Gender diskriminatsiyasini kamaytirishning falsafiy konseptual modeli inson erkinligi, adolat va ijtimoiy uygʻunlik tamoyillariga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, jamiyat boshqaruvida gender diskriminatsiyasining oldini olish, eng avvalo, inson erkinligi va tenglik tamoyillarini falsafiy jihatdan asoslashni talab etadi. Erkak va ayolning ijtimoiy subyekt sifatidagi teng maqomini tan olish boshqaruv tizimining adolat va muvozanat tamoyillariga asoslangan holda rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ikkinchidan, gender diskriminatsiyasi ijtimoiy ongda mustahkam oʻrnashgan patriarxal stereotiplardan kelib chiqadi. Shu sababli, falsafiy nuqtai nazardan bu stereotiplarni tanqidiy tahlil qilish, yangi gender madaniyatini shakllantirish zarur. Bu jarayon ijtimoiy qadriyatlar tizimida tenglik va hurmat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, jamiyat boshqaruvida gender muvozanatini taʼminlash sinergetik yondashuvni talab etadi. Erkak va ayol subyektivligining uygʻun faoliyati ijtimoiy tizimda dinamik muvozanat, innovatsion fikrlash va barqarorlikni kuchaytiradi. Shu bois, boshqaruv tizimida gender tenglikni strategik omil sifatida koʻrish muhim falsafiy ahamiyat kasb etadi.

Toʻrtinchidan, gender diskriminatsiyasini kamaytirishning ijtimoiy-falsafiy asosi – bu inson qadri, adolat va erkinlikni markazga qoʻygan boshqaruv modeli yaratishdir. Habermas taʼkidlaganidek, ijtimoiy tizimda adolat muloqot va oʻzaro tan olish orqali vujudga keladi. Shu bois, boshqaruv jarayonlarida ayollar ovozini eshitish zaruriy falsafiy tamoyildir.

Beshinchidan, Yangi Oʻzbekiston sharoitida gender tenglikni taʼminlash siyosati milliy qadriyatlar va global falsafiy gʻoyalar uygʻunligida amalga oshirilmoqda. Bu jarayon jamiyat boshqaruvida insonparvarlik, adolat va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilib, demokratik qadriyatlar tizimining muhim falsafiy poydevorini shakllantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Рахимова Г. Гендерный аспект: участие женщин Узбекистана в политической жизни и избирательных процессах. <https://yuz.uz/ru/news/genderny-aspekt>.
2. Mirziyoyev Sh.M. Prezidentlik saylov oldi dasturining 9-ustuvor yoʻnalishi.

3. Голубев А.А. Энциклопедический словарь политологических терминов. – СПб. Издательство: Петрополис. 2013.
4. Радаев В.В., Шкаратан О.И. Социальная стратификация. М.: «Аспект Пресс», 1994. – С.226.
5. Аристотель. Сочинения. В 4 т. (Серия «Философское наследие»). М.: Мысль, 1975. – С.112.
6. Fridrix Nitshe. «Zardo'sht tavallosi». – Toshkent.: “Yangi asr avlodi”, 2021. – В.224.
7. Симона де Бовуар. Второй пол. – М.: «Азбука-Аттикус», 2017. – С.265.
8. Хабермас Ю. Моральное сознание и коммуникативное действие. Санкт-Петербург, 2000.
9. Мишель Фуко. Интеллектуалы и власть статьи и интервью 1970 -1984. – М.: “Праксис”, 2002. – С.220.
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent.: “O'zbekiston”, – В.236.